

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA DIREKTOR O'RINBOSARINING VAZIFALARI.

Yangihayot tumani 48-sonli DMTT direktor
o'rinbosari **Toshmurodova Zarifa Akbarovna**

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya ishlarini talab darajasida amalga oshirish, tarbiyachilarda mehnat intizomiga qat'iy amal qilish ko'nikmasini, bir-birining kamchiliklariga tanqidiy munosabatni shakllantirish, mehnat va ijodiy faolligini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish, qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash direktor o'rinbosari yuksak bilim va malaka, tarbiyachilar bilan ularning ruhiyatini inobatga olgan holda ishlash salohiyati, katta tajriba hamda ko'plab ma'naviy fazilatlar sohibi bo'lishni talab etadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor o'rinbosarining vazifalari va olib boradigan ishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalitso'zlar: direktor o'rinbosari, maktabgacha ta'lim, bolalar, ta'lim, tarbiyachi, tarbiya.

Jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta'lim – tarbiya ishlarining mazmuni, shakl mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham Respublikamizda bosqichma – bosqich amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini pedagogik tahlil qilish, bu jarayonni samarali kechishini ta'minlash zarurati yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida – ta'lim tizimida kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish vazifalari belgilab berilgan. Bu vazifalarni to'laqonli hal etishda o'qituvchi – pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda Oliy va o'rta maxsus ta'limini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari o'z mutaxassisligi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, nazariy bilimlarni amaliy tayyorgarlik bilan qo'shib olib borish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Bu talablar pedagogika kollejarining maktabgacha ta'lim yo'nalishida tarbiyachi uslubiyotchilar tayyorlashga ham taaluqli

bo'lib, ularda maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlar fani ixtisos beradigan o'quv fani hisoblanadi. O'quvchi – talabalarga maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim – tarbiyaviy, metodik ishlarga umumiy nazariy yondashish masalalarini ochib berar ekan, maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan barcha metodik va ta'lim – tarbiya berish ishining mazmuni, ularni tashkil etish, shakl va metodlarini tanlash qonuniyatlarini belgilovchi asosiy fan sifatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlar pedagogika fanining muhim sohasi bo'lib, uslubchi tomonidan metodik ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni yoritib beradi. U ijtimoiy pedagogika va maxsus metodikalar bilan umumiy ilmiy – nazariy asoslarga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning aniq qoidalari mazkur muammolarga taaluqli maktabgacha pedagogika fanining umumiy nazariy qoidalarga tayanadi. Bu xol asosiy ixtisos beradigan kursning zaruriy g'oyaviy – nazariy darajasini ta'minlashga uning mazmunini maktabgacha pedagogika fani tomonidan ishlab chiqilgan asosiy metodologiya va nazariy qoidalar negizida yoritishga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti nizomida direktor o'rinbo'sari huquq va vazifalari aniq belgilab berilgan. U ta'lim-tarbiya uslublarini mukammal egallagan, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng, yuksak ma'naviy fazilatlar sohibi, tadbirkor, kamida bitta xorijiy tilni biladigan pedagoglar orasidan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbo'sari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- tashkilotdagi ta'lim-tarbiya ishlariga metodik rahbarlikni amalga oshiradi; - «Ilk qadam» o'quv dasturining bajarilishini ta'minlaydi va nazorat etadi, ta'lim-tarbiya ishlarining to'g'ri tashkil etilishi uchun javob beradi;

- ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishga mas'uldir;

- pedagogik kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi; - tashkilotdagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi;

- bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi;

-ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etish, turli guruh tarbiyachilari, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkiloti va umumta'lim maktablari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda uzviylikni ta'minlashga yo'naltirilgan ishlarni tashkil etadi.

Direktor o'rinbosari hamkasblarining hurmatini qozonish va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun muayyan rahbarlik salohiyatiga ham ega bo'lishi lozim. U nafaqat puxta nazariy tayyorgarlikka, balki bilim va tajribalarini amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi zarur. Tajribali direktor o'rinbosari tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashish g'oyalarini umumlashtira bilishi, aniq maqsadni ko'zlab faoliyat yuritishi, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini e'tiborga olishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarining ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi faoliyatining samaradorligi, uning obro'-e'tibori ko'p jihatdan pedagoglar jamoasi, eng avvalo, tashkilot rahbariyatining jipsligi, uyushqoqligi va bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat yuritishiga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya ishlarini talab darajasida amalga oshirish, tarbiyachilarda mehnat intizomiga qat'iy amal qilish ko'nikmasini, bir-birining kamchiliklariga tanqidiy munosabatni shakllantirish, mehnat va ijodiy faolligini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish, qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash direktor o'rinbosaridan yuksak bilim va malaka, tarbiyachilar bilan ularning ruhiyatini inobatga olgan holda ishlash salohiyati, katta tajriba hamda ko'plab ma'naviy fazilatlar sohibi bo'lishni talab etadi. Shuning uchun ishini endi boshlayotgan har bir yosh mutaxassis yordam va maslahatga muhtojligini e'tiborga olib, uni yetarli bilim va tajribaga ega murabbiyga birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Y

Pedagogik va ota-onalar kengashlarining qarorlarini o'rganish esa yillik rejadagi asosiy masalalarni, o'rganilayotgan masalalarining dolzarbligi, ota-onalarining qiziqishlaridan habardor qiladi.

Suhbat usuli metodi - kuzatish jarayonidagi hujjatlarni o'rganishdagi tushunarsiz bo'lgan jarayonlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Suhbat mazmuniva uning harakteri turlicha bo'lishi mumkin.

1.Guruhdagi bir kunlik pedagogik jarayonini kuzatish bo'yicha tarbiyachibilan suhbat - muhokama o'tkazish;

2.Kuzatish natijalarini tahlil qilish (suhbat-tahlil).Suhbatlar tarbiyachining tarbiya jarayonlarida qo'llagan usullari haqida ham bo'lishi mumkin.

Kuzatish jarayoni tugagandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda mudira yoki direktor o'rinbosari ishtirokida tarbiyachi ishiga baho beriladi. Ishdagi yutuq va kamchiliklarga ob'ektivlik bilan yondoshish kerak, bunda nazoratchi avval -tarbiyachini o'z ishi haqida tushuncha berib, ishiga baho beradi, pedagogik ish jarayonidagi yangilik yarata olish yo'llarini ko'rsatib beradi. Mudira bilan suhbatda - muassasaning moliyaviy-xo'jalik, tashkiliy-pedagogik, metodik, xodimlar bilan ishlash masalalari bo'yicha o'tkaziladi. Muassasa vrachi yoki tibbiyot xamshirasi bilan bo'ladigan suhbat orqali bolalar sog'ligi, kasalliklarni oldini olish ishlarini o'tkazilishi hahida, vrachning ish rejasi bo'yicha suhbat o'tkaziladi.Ota-onalar va qo'mita raislari bilan suhbat chog'ida, ularning istak-takliflari, talablari, ularning muassasaga ko'rsatayotgan yordami, maktabgacha ta'lim muassasasining oilada bolalarni tarbiyalashga qo'shayotgan hissalari haqida bo'lishi mumkin.Bolalar ishlarini tahlil qilish - guruhning va faol bolalarning har tomonlama o'z ishi, bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini etarligini aniqlovchi omildir.Bolalar ishlarini saqlash, bolalarning ehtiyotkorligini aniqlash g'oyat katta ahamiyatga egadir. Bolalar ishlarini tahlil qilishda ishlarining soni, mazmuni, takrorlanmasligi, dastur talablariga javob berishi muhimdir.Bu jarayonni o'tkazishda guruh tarbiyachisining ishtiroki darkor.Uslubchi shaxs kuzatishda tarbiyachiga turli maslahatlar berib boradi.

Masalan: qurish-yasash, qo'l mehnati, tasviriy faoliyat.

Yuqoridagi usullardan foydalanib direktor o'rinbosari muassasa ishini atroflicha, chuqur o'rganib chiqishini ta'minlaydi.Guruh tarbiyachisining ishini avval tarbiyachisining o'zi bilan muhokama qilinadi keyin pedagogik kengash ishiga olib

chiqiladi. Yutuq va kamchiliklar, taklif va mulohazalar ochiqchasiga - oshkora holda tushuntiriladi. Kerakli yo'llanma, ko'rsatma va metodik yordam o'z vaqtida ko'rsatiladi. Bolalarning bilim-saviyalarini, ko'nikma va malakalari bilish maqsadida guruhda savol-javob, anketa savollariga javob olish usulini ham o'tkazish muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayon kvartallar orasidagi o'tgan vaqtda dastur talablarini bajarilganligi va tarbiyachining qay tarzda etkaza olganligi, bolalarning bilim doirasi, dunyoqarashi, ijodiy o'sishi, kabi bo'lgan murakkab psixologik-ruxiy rivojlanishi uchun eng muxim omil bo'lib xizmat qiladi. Anketa savollari turli mavzuda - masalan jonajon O'zbekistonimiz, undagi tarixiy joylari, shahar, viloyat, tumanlarning nomlari - tarixiy atamalarining mazmuni, o'rni, ulug' bobokolonlarimiz - Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Bobur, Abdulla Qodiriyning bebaho durdona asarlari, ular bilan yaqindan tanishtirish maqsadida ham o'tkazishi mumkin. Bu jarayonda guruh bolalariga va tarbiyachi ishiga baho berish mumkin. Shu yo'sindagi anketa savollarini tarbiyachi, direktor o'rinbosari va mudiraning bilim saviyasi, g'oyaviy-siyosiy etukligini, o'z mutaxassisligi bo'yicha bilim va malakasini aniqlash maqsadida ham o'tkazish mumkin. Muassasada tarbiyachi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni va metodikani erkin tanlash huquqiga ega (Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom) deyiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z pedagogik faoliyatidagi printsiplarga og'ishmay amal qiladi:

- bola shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lish asosiga quriladigan butun pedagogik jarayon insoniylik yo'nalishlari bilan sug'orilgan bo'lish;
- psixologik-pedagogik fikr va aralash fanlarning zamonaviy yutuqlariga mo'ljallangan o'z-o'zini rivojlantirishga zo'r berish.

Xulosa:

Direktor o'rinbosari - yuqorida bayon etilgan printsiplarni muassasada amalga oshirishini nazorat qilish va bajarishini tekshirish, qabul qilingan avvalgi qarorlarni ijrosini ko'rish maqsadida «Pedagogik kengash» ishiga qatnashadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayotiy, jismoniy va ruxiy sog'lomligi uchun, har bir bolaning yoshi va shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi emotsional va to'laqonli

rivojlanishi, bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishning tanlangan tizimi samaradorligi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yaratishda, tarbiyaviy jarayonni psixologik ta'minlash ruxshinos yoki psixologik xizmatini yaratishni tashkil etish ishida metodik yordam ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida rahbar xodimlar va tarbiyachilarning pedagogik metodlar va usullarni mustaqil ishlab chiqishi va ulardan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini yaratib berish yo'li bilan ularning pedagogik ijodiyotiga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, SH.K.Tashpulatova va boshqalar Maktabgacha ta'lim pedagogikasi—Ilm Ziyo T.: 2006 y
- 2.O.U.Xasanboeva, Oilada barkamol avlod tarbiyasi, T., «Fan vatexnologiyalar» 2010
- 3.Sh.K.Tashpulatova —Maktabgacha ta'lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari, TDPU.T.: 2001
- 4.B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva Pedagogika, O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2000 y.
- 5.R. Mavlonova —Pedagogik texnologiya Toshkent —Fan 2009